

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan

"BARQARORLIK KURSI" seminar trening dekabr oyi

BAYONNOMASI

O'tkazilgan sana: 11-dekabr 2025 yil

O'tkazilgan joy: kichik faollar zali

Seminar mavzusi: Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash

Qatnashdilar: Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar

KUN TARTIBI:

1. Barqaror rivojlanish tamoyillari va QS Barqarorlik ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berish.
2. Chiqindilarni kamaytirish, saralash va qayta ishlash haqida tushuncha berish
3. Universitetda ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va energiya tejamkorlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.
4. Talabalar va xodimlarning barqarorlik tashabbuslaridagi ishtirokini oshirish.
5. Taklif va muhokamalar.


MUHOKAMA:

Seminar davomida universitetda barqaror muhitni yaratish, energiya va suv resurslarini tejash, chiqindilarni kamaytirish, hududni ko'kalamzorlashtirish hamda ekologik madaniyatni oshirish masalalari muhokama qilindi. QS Barqarorlik reytingi indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni tizimli ravishda yig'ish va platformaga joylashtirish zarurligi ta'kidlandi. Talabalar va xodimlarning ekologik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha fikrlar bildirildi. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash — atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanishning muhim qismidir. Chiqindilarni to'g'ri saralash, yig'ish va zararsizlantirish orqali tuproq, suv va havoning ifloslanishi kamayadi. Maishiy, sanoat va organik chiqindilarni alohida yig'ish tizimi ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, plastik, qog'oz, shisha va metall chiqindilarni qayta ishlash orqali tabiiy resurslar tejab qolinadi va chiqindi hajmi kamayadi.

Qayta ishlash jarayoni chiqindilarni yangi mahsulotga aylantirish orqali iqtisodiy va ekologik foyda keltiradi. Masalan, qayta ishlangan qog'oz daraxt kesilishini kamaytiradi, plastikni qayta ishlash esa neft resurslarini tejaydi. Universitet va tashkilotlarda chiqindilarni kamaytirish, qayta foydalanish va qayta ishlash tamoyillarini joriy etish ekologik madaniyatni oshiradi hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

QARORLAR:

1. Universitetda barqarorlik yo'nalishidagi seminar-treninglarni muntazam davom ettirish.
2. Energiya va resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ishlarni kuchaytirish.
3. Talabalar va xodimlarning ekologik loyihalardagi ishtirokini oshirish.
4. QS Barqarorlik indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida tayyorlab, platformaga kiritib borish.



Mas'ul shaxs: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna

Imzo: _____

A handwritten signature in blue ink, written over a horizontal line. The signature is stylized and appears to be the name of the responsible person.